



O'ZBEKISTONDA UMUMIY SUG'URTA TARMOG'IDA QAYTA SUG'URTALASHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Oripov Akbar Amonjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-1593-7472

oripovakbar764@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston umumiy sug'urta tarmog'ida qayta sug'urtalashning so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari dinamikasi ya'ni qayta sug'urtalashdan qabul qilingan va qayta sug'urtaga berilgan qayta sug'urta mukofotlari hajmi yoritilgan hamda tahlil qilingan. Shuningdek sug'urta bozorida qayta sug'urtaning rivojlanishidagi mavjud muammolar yoritilib, ularning yechimi bo'yicha takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: umumiy sug'urta, qayta sug'urtalash, sug'urta mukofoti, qayta sug'urta mukofoti, sug'urta majburiyati, obligator qayta sug'urtalash.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ В ОТРАСЛИ ОБЩЕГО СТРАХОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕЕ РАЗВИТИЯ

Oripov Akbar Amonjonovich

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье описана и проанализирована динамика показателей перестрахования в отрасли общего страхования Узбекистана за последние годы, в том числе объем перестраховочных премий, полученных от перестрахования и переданных в перестрахование. Также показаны существующие проблемы в развитие перестрахования на страховом рынке, и даны предложения по их решению.

Ключевые слова: общее страхование, перестрахование, страховая премия, перестраховочная премия, страховое обязательство, обязательное перестрахование.

CURRENT STATE OF REINSURANCE IN GENERAL INSURANCE NETWORK IN UZBEKISTAN AND DIRECTIONS OF ITS DEVELOPMENT

Oripov Akbar Amonjonovich

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article describes and analyzes the dynamics of indicators of reinsurance in regards to the general insurance field of Uzbekistan in recent years, including the volume of reinsurance premiums received from reinsurance and given to reinsurance. The existing problems in the development of reinsurance in the insurance market are also shown, and proposals for their solution are given.

Keywords: general insurance, reinsurance, insurance premium, reinsurance premium, insurance obligation, obligatory reinsurance.

Kirish.

Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotning barqarorligi hamda aholi ijtimoiy himoyasining muhim omillaridan biri bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida amal qilmoqda.

Mamlakatimizda sug'urta tizimini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish yuzasidan qator choralar ko'rilmogda. Bunda albatta, qayta sug'urtaning o'rni beqiyos. Umuman olganda qayta sug'urta faoliyati sug'urta biznesining muhim yo'nalishi bo'lib, sug'urta kompaniyasining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasiga muvofiq, qayta sug'urta qilish bu – sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishidir.

Qayta sug'urta – bu sug'urta faoliyatini va sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi zaruriy mexanizm hisoblanadi. Qayta sug'urtalash yordamida sug'urtalovchilar o'zlarining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllantirishlari mumkin.

Qayta sug'urta qilish shartnomalarining tuzilishi sug'urtalovchilarga o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ularning kapitali hajmi va sug'urta operatsiyalari miqdori o'rtasidagi munosabatni yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi. Qayta sug'urta qilish shartnomalarini tuzish imkoniyatining mavjudligi sug'urtalovchilarga sug'urtaning yangi turlari bo'yicha operatsiyalar bilan ko'proq shug'ullanishga yordam beradi (Кристофор Пфайффер, 2017).

Adabiyotlar sharhi.

Qayta sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati qator olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Bozor iqtisodiyotining paydo bo'lishi sharoitida qayta sug'urtalash nazariyasi masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalar orasida M.I. Braginskiy, Y.M. Juravlyov, M.G. Kaminkina kabi olimlarning ishlarini ajratib ko'rsatish kerak. Shuningdek, B.S. Novikov, Y.Y. Solntseva, K.E. Turbina, G.V. Fogelson kabi olimlarning ishlari qayta sug'urtalashni yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini asoslaydi va ushbu vazifani amalga oshirishning uslubiy yondashuvlarini belgilaydi.

Belorusiyalik olim Juravlyovning (2015) fikriga ko'ra, "Qayta sug'urta bu – iqtisodiy munosabatlar tizmi bo'lib, unga ko'ra muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish maqsadida sug'urtalovchi o'ziga sug'urta risklarini qabul qilgandan so'ng, ushbu javobgarlikning ma'lum bir qismini o'zaro kelishilgan shartlarga ko'ra boshqa sug'urtalovchilarga o'tkazishidir".

Rossiyalik olimlar Kaminkina va Solntseva (2016) qayta sug'urtani quyidagicha ta'riflaydi: "Qayta sug'urtalash bu – birlamchi sug'urta fondini qayta taqsimlash orqali yo'qotishlarni qoplashning eng samarali usulidir".

Yana bir taniqli rossiyalik olim Novikov (2013) o'zining maqolasida qayta sug'urtani quyidagicha izohlagan: "Qayta sug'urta bu sug'urtaning bir qismi yoki moliyaviy kafolatning bir ko'rinishidir".

Iqtisodchi olim Turbinaning (2015) ta'rifiga ko'ra qayta sug'urtalash bu – ma'lum bir shartlar va to'lov asosida sug'urtalangan riskning sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasida qayta taqsimlanishidir.

Rossiyalik tadqiqotchi Merebashvili (2017) o'z tadqiqotlarida quyidagi xulosaga keladi: "Qayta sug'urta bu – sug'urtaning sug'urtasidir ya'ni birlamchi sug'urtalovchi o'ziga qabul qilib olingan riskni boshqa bir sug'urtalovchida qayta sug'urtalashidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy maqolada globallashuv sharoitida mamlakatimiz sug'urta bozorida qayta sug'urta tizimining hozirgi holati va salohiyatini o'rganish hamda undan samarali foydalanish yo'llarini, shuningdek unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induktsiya va deduktsiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Mamlakatimizda sug'urta xizmatlari hajmi yildan yilga jadal sur'atlarda o'sib bormoqda. Sug'urta kompaniyalari sug'urta bozorining imkoniyatlaridan yanada unumliroq foydalanishga intilyapti. Bunda asosiy e'tibor qayta sug'urta tizimiga qaratilmoqda. Hozirgi raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta kompaniyalari daromadini oshirishda asosiy dastak bu qayta sug'urtalashdir. Shuning uchun sug'urta kompaniyalarida qayta sug'urtalash tizimining rivojlanishi umumiy tushumlarning oshishiga olib keladi. Bugunga kelib mamlakatimizda 43 ta sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritib kelmoqda, shulardan 35 tasi umumiy sug'urta sohasi 8 tasi hayot sug'urtasi sohasi kompaniyalari hisoblanadi. Umumiy sug'urta sohasidagi 35 ta kompaniyadan joriy yilga kelib 20 ta kompaniyada qayta sug'urtalash tizmi yo'lga qo'yilgan. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-sonli qaroriga muvofiq sug'urta kompaniyalari uchun ustav kapitalining minimal miqdorlari quyidagicha belgilangan:

1-jadval

Sug'urta kompaniyalari uchun ustav kapitalining minimal miqdorlari⁵²

No	Sug'urta faoliyatining turlari	Ustav kapitalining minimal miqdorlari (mln. so'm)
1	Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida ixtiyoriy sug'urta	20000
2	Umumiy sug'urta yoki hayotni sug'urta qilish tarmog'ida majburiy sug'urta	35000
3	Faqat qayta sug'urta	45000

Jadvaldan ko'rinib turibdiki sug'urta kompaniyasi qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishi uchun ustav fondini kamida 45 mlrd. so'm miqdorda shakllantirishi kerak.




1-rasm. Chet el sug'urta tashkilotlaridan yig'ilgan qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi (umumiy sug'urta sohasi bo'yicha) (mln. so'mda)⁵³

⁵² www.napp.uz

⁵³ www.napp.uz

Bunday kompaniyalar soni bugunga kelib 20 tani tashkil etmoqda. Ushbu kompaniyalar qayta sug'urta orqali chet el kompaniyalaridan ham faol tarzda qayta sug'urta mukofotlarni jalb qilmoqda. Quyida so'nggi to'rt yilda chet el kompaniyalaridan qabul qilingan jami qayta sug'urta mukofotlari hajmlari dinamikasi bilan tanishib chiqamiz.

Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turiptiki umumiy sug'urta sohasida chet el sug'urta tashkilotlaridan yig'ilgan qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi so'nggi to'rt yilda yuqori sur'atlarda o'sgan. Bu esa o'z navbatida milliy sug'urta bozorimizda qayta sug'urtalash faoliyatining yildan yilga jadal rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. 2020-yilda yig'ilgan qayta sug'urta mukofotlari hajmi 103 594 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 221,4 % ga o'sib 332 995 mln. so'mga yetgan. 2022-yilda esa 182,5% ga o'sib 940 087 mln. so'mga yetgan va 2023-yilda 40,9% lik o'sishga erishlib jami 1 324 269 mln. so'mlik sug'urta mukofotlari yig'ilgan.



2-rasm. Chet el sug'urta tashkilotlariga berilgan qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi (umumiy sug'urta sohasi bo'yicha) (mln. so'mda)⁵⁴

Yuqoridagi diagrammadan ko'rish mumkinki, 2020-yilda chet el sug'urta tashkilotlariga berilgan qayta sug'urtalash mukofotlari hajmi 246 283 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 99,0 % ga o'sib 490 152 mln. so'mga yetgan. 2022-yilda esa 53,9% ga o'sib 755 117 mln. so'mga yetgan va 2023-yilda 101,6% lik o'sishga erishlib jami 1 522 557 mln. so'mlik sug'urta mukofotlari berilgan.

Qayta sug'urtanining rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi yana bir ko'rsatkich bu yig'ilgan qayta sug'urta mukofotlarining umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushini ko'rsatuvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

2-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urta mukofotlari ulushi (mln so'mda)⁵⁵

Yillar	2020	2021	2022	2023
Jami sug'urta mukofotlari	1 879 346	2 995 707	4 672 270	7 737 236
Yig'ilgan qayta sug'urta mukofotlari	103 594	332 995	940 087	1 324 269
Jami sug'urta mukofotlarida qayta sug'urtaning ulushi	5,51%	11,11%	20,12%	17,11%

Jadvaldan ko'rish mukinki yig'ilgan qayta sug'urta mukofotlarining umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi so'nggi to'rt yilda jadal sur'atlarda o'sib borgan.

⁵⁴ www.napp.uz

⁵⁵ www.napp.uz

Xulosa va takliflar.

Mohiyatiga ko'ra qayta sug'urta xalqaro xususiyatga ega. Milliy sug'urta tashkilotlari o'z javobgarliklarini ko'p hollarda xalqaro darajada xizmat ko'rsatuvchi qayta sug'urta kompaniyalariga beradi. Lekin bu jarayonda mamlakatdan valyutaning chiqib ketishini hisobga oladigan bo'lsak, bu iqtisodotga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shunday ekan qayta sug'urtani takomillashtirish nafaqat sug'urta bozori uchun balki, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni olib keladi.

O'tkazilgan tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz sug'urta bozorida umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha qayta sug'urtalash faoliyati o'sish dinamikasiga ega. Ammo sug'urta bozorining imkoniyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak bundan yuqori natijalarga erishish mumkin. O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash tizmini rivojlantirish chora-tadbirlar majmuasiga quyidagi takliflar kiritildi:

- qayta sug'urtalash faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan minimal ustav fondining to'liq barcha sug'urta kompaniyalari tomonidan shakllantirilishiga erishish.

- sug'urta kompaniyalariga qayta sug'urtalovchi yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish, qayta tayyorlash.

- sug'urta kompaniyalarining "Moody's Investors Services", "Standard & Poor's Corporation", "Fitch, Inc", "A.M. Best Company, Inc." kabi xalqaro reyting agentliklaridan yuqori reytinglarga ega bo'lishiga erishish.

- sug'urta kompaniyalarining obligator qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzishi orqali portfel himoyasini oshirish.

- sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta majburiyatlarini bajarishning aniq, tiniq va qat'iy qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek, majburiyatlar buzilgan taqdirda sug'urta tashkilotlarining majburiyatlarini qat'iy qoidalar asosida so'zsiz bajarishni nazarda tutuvchi qattiq jazo choralarini qo'llash, sug'urta kompaniyalarining mijozlari o'zlarining manfaatlarini himoya qilish bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqishning puxta o'ylangan tartiblarini ishlab chiqish.

Adabiyotlar / Литература/ Reference:

Кристофор Пфайффер: (2017) "Введение в перестрахование" Анкил, 14 с.

Журавлев Ю.М. Формы и методы проведения перестраховочных операций. Основные виды перестраховочных договоров. –М.: Научно-информационная внедренческая фирма "ЮКИС", 2015.- 192 с.

Камынкина М.Г., Солнцева Е.Е. (2016) Перестрахование. Практическое руководство для страховых компаний. –М.: АО "ДИС", -140 с.

Novikov B.S. (2013) Основы экономики страхования –М. : Анкил, – 228 с

Турбина, К.Е. (2015) Перестрахование: вид страхования или особый род финансовой гарантии // Финансовая газета. №26. С. 3.

Merebashvili T.A. (2017) Экономическая природа перестрахования // Финансы. №10. С.45-50.